

GLOBALLASHUV DAVRIDA MA'NAVIYAT VA BUGUNGI YOSHLARNING RUHIY HOLATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Ibraymov Timur Uzaqbaevich

*NDPI sotsial gumanitar o'qitish metodikasi
Ma'naviyat asoslari 2-bosqich magistranti*

Abstract. Mazkur maqolada globallashuv davrida bugungi yoshlarning ruhiy holati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ma'naviyatni shakllantirish orqali yoshlar ruhiy holatini rivojlantirishning asoslari yoritilgan hamda ushbu jarayondagi muammo va kamchliklar aniqlangan va ularning yechimi sifatida kerakli tavsiyalar keltirilgan.

Key words: ma'naviyat, huquq, fuqarolik jamiyati, ta'lim, tarbiya, ma'rifat, odobaxloq, qonun.

Abstract. This article provides information about the mental state of today's youth in the era of globalization, highlights the basics of developing the mental state of youth through the formation of spirituality, identifies problems and shortcomings in this process, and provides necessary recommendations as a solution to them.

Key words: spirituality, law, civil society, education, upbringing, enlightenment, morality, law.

INTRODUCTION

Mamlakatimiz yoshlari bugun hayotimizning turli jabhalarida shijoat bilan faoliyat yuritishmoqda. Ular — talaba va o'quvchi, ishchi hamda shifokor, pedagog va muhandis, ishbilarmon hamda tadbirkor. Yoshlarimiz kompyuter texnikasi, internet texnologiyasi, bir nechta chet tillarini mukammal egallab, rivojlangan davlatlarda tahsil olib, jahon maydoniga chiqmoqdalar. O'zbekistonning kelajakda buyuk davlat bo'lishi uchun yuqori bilim va malakali mutaxassis kadrlarni tarbiyalab yetishtirish taqozo etiladi. Hozirda bunday ulkan vazifani sharaf bilan bajaradigan, zamonaviy va jahoning eng ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kunda n-kunga ortib bormoqda. 2016-yil 14-sentabrda mamlakatimizda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi davlatimizning yoshlarga bo'lgan oliy g'amxo'rligi va e'tiborining yuksak ramzi bo'ldi. Bu singari qonunchilik hujjalaring qabul qilinishi ijtimoiyadolat, insonparvarlik, mehr-oqibat g'oyalariga tayanish barobarida yoshlar hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi asosiy tamoyillarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi¹ talablari asosida olib borilayotgan islohotlar yuksak darajada

¹ «O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'grisidagi» gi qonuni va «Kadrlar tayorlashning miliy dasturi» 2020 yil 23-sentabr

yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.

MATERIALS AND METHODS

Jamiyatning globallashuvi, integratsiyalashuvi, axborotlashuvi va ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida insoniyat taraqqiyotining jadal suratlar bilan rivojlanayotgan intellektual salohiyati, turli mamlakatlarda yashayotgan elat, millat va xalqlarning iqtisodiyotini yaxshilashga xizmat qilgan bir paytda xalqlarning milliy identikligi (milliy o‘zlikni anglash) jarayoniga bepisandlik munosabatida bo‘lish - xalqning milliy o‘zlikni yo‘qotish xavfini kuchaytiradi. Natijada uning o‘rnini hech narsa bilan to‘ldirishni imkonni bo‘lmaydi².

Globallashuvning insonlar, millatlar, mamlakatlar va mintaqalarga o‘tkazayotgan salbiy ta’siri bugunning o‘zida yaqqol namayon bo‘lmoqda.

Ammo bugungi kunda globallashuv tufayli dunyoda shakllanayotgan yangi qadriyatlar bilan insoniyat orttirgan hayotiy tajriba o‘rtasidagi uzviylikning muayyan darajada buzilishi, turli xil tahdidlarning hozirgi holati jarayonida o‘zgarayotgan identiklik muammosini maxsus tadqiq etish zaruratini taqozo etmoqda³.

Mana shunday sharoitda yoshlar siyosatining dolzarbligi har qachongidan ham muhim masala sanaladi. Ochiqlik va shaffoflik; yoshlarning bevosita ishtiroki; yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish; ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; ma’naviy mezonlarga e’tibor qaratilganligi; yoshlarning kansitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi; jamiyat hayotidagi ma’naviy o‘zgarishlarda oldingi saflarda bo‘lishi; ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalardagi islohotlarni amalga oshirishda faol ishtiroki va hokazolar yoshlar siyosatining ustuvor vazifalari sanaladi. Ko‘rib turganimizdek, yoshlar ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish globallashuv davrida milliy o‘zligimizni saqlab qolishning yagona choralaridan biridir. Shuningdek ma’naviyat rivojlantirish orqali yoshlarni ruhiy kamolotga yetkazamiz.

LITERATURE REVIEW

Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati va ma’naviyati ham xalqaro savdo yo‘lida joylashganligi sababli Sharq va G’arb madaniyatidan foydalangan. Ularning ijobiliy tomonlarini o‘zlashtirgan, ijodiy foydalangan, takomillashtirgan va yanada rivojlantirgan. Buni ma’naviyatning tarkibiy qismi bo‘lgan ilm-fan, diniy e’tiqod, san’at, musiqa sohasida ko‘rish mumkin.

Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va Forobiylar o‘z tadqiqotlari uchun Xitoy, Hindiston, Eron, Arab, Yunon va Rum fani yangiliklaridan foydalanganlar. Hatto shu xalqlarning tillarini puxta o‘zlashtirganlar. Ular shu xalqlarning ilmiy yangiliklarini o‘rganib qolmay, ularni o‘z ixtirolari bilan

² Kadirova H. The Place Of Karakalpak Ethnoculture In The Integration Of Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. - 2021. - T. 3. - №. 04. -C. 676-688.

³ Кадирова Х. Б. Главная духовная ценность и личность человека //Фэн-наука. - 2015. -№. 1. - С. 29-32.

ijodiy rivojlantirib, ilm - fan sohasida olamshumul kashfiyotlar qilganlar. Demak, milliy g'oyamiz jahon xalqlarining ma'naviy ta'siri tufayli rivojlanib borgan.

Xuddi shunday, XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi. Demak, o'sha paytda milliy teatr san'ati ham deyarlik yo'q edi. Munavvarqori, Behbudiy, Fitrat singari ilg'or ziyyolilarning sa'i - harakati bilan o'zbek dramaturgiyasi shakllandi, keyinchalik teatr san'ati ham vujudga keldi. O'sha paytda teatr san'ati, estrada san'ati o'zbek xalqi uchun yot narsa, deb unga qarshi chiqqanlar ham oz emasdi. Hozirgi vaqtida teatr va estrada san'ati ma'naviyatimizning tarkibiy qismiga aylandi. Kino, fotografiya san'ati ham xuddi shunday edi. Yot g'oyalardan himoyalanishning eng samarali yo'li, ularga qarshi g'oyaviy kurashdir. Ayni vaqtida biz o'z g'oyalaramiz, an'analarimiz va turmush tarzimizni dunyoga yoyish, jahon xalqlarini tanishtirish uchun ham harakat qilishimiz kerak. Yurtimizdan chiqqan buyuk allomalar o'z kashfiyatlari bilan dunyoga tanilgan, jahon tsivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Bu traditsiya yana davom qildirilmog'i kerak.

Al-Xorazmiy, Beruniy, Ulug'bek, Ibn Sino kabi buyuk allomalarimizning ilmiy kashfiyotlari shu kunlarda ham jahon ilm-fani taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqlari ma'naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o'rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma'naviyat cho'qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Mening nazarimda bizga hozirgi kunda ana shu ijodiy yondashuv yetishmayotganday. Bizga ta'sir o'tkazayotgan yoki ta'sir o'tkazmoqchi bo'layotgan g'oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Ana shunday tahlilni o'tkazish uchun esa ba'zan erinchoqligimiz, ba'zan uquvsizligimiz xalaqit bermokda. Buning oqibatida qabul qilish kerak bo'lgan g'oyalarni rad etish va rad etish lozim bo'lgan g'oyalarni qabul qilish hollari ham uchrab turibdi.

Shunday g'oyalalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni ta qillatib, kirib keladi. Shunday g'oyalalar ham borki, ular o'g'ri kabi kechasi tuynukdan tushish adi.

Eshik qoqib keladigan g'oyalalar milliy ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki, milliy ma'naviyatlar o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanadi. Har qanday xalq ma'naviyati rivojiga nazar tashlansa uning boshqa xalqlar udum va an'analarini o'zlashtirish va moslashtirish orqali rivojlanganini ko'rish mumkin.

RESULTS

O'zbek milliy ma'naviyati ham uzoq va yaqindagi qo'shnilarining ilg'or an'analarini o'zlashtirish natijasida rivojlanib boradi. Ma'naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati va uning asr oxiridagi holati o'rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, hatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak sohalarida ham kuzatish mumkin.

XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi, demak milliy teatr san'ati to'g'risida so'z ham yurigi zish mumkin emas edi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning sa'y-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millati uchun yot, begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatrni rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan edi. San'atning bu turlarini O'zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazax qilish, masxaralash, xatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari, deyuvchilar tomonidan amalga oshirilgan edi. Hamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san'ati milliy ruhiyatimiz va ma'naviyatimizga yot, deyuvchilarning o'zлari milliy ma'naviyat rivojiga g'ov ekanini ko'rsatdi. Hozirgi kun da har million kishiga hisoblaganda teatrlar soni bo'yicha O'zbekiston dunyodagi eng ilg'or o'rnlardan birini egallaydi va teatr san'ati o'quvchi yoshlarimizning axloqiy-ma'naviy jihatdan tarbiyalashda milliy ma'naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ommoviy madaniyat ta'sirida milliy ma'naviyatimizga to'g'ri kelmaydigan kiyinish madaniyatining kirib kelishi va o'quvchi yoshlarimizning ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotg anini teran fikrlaydigan har qanday odam kuzatishi mumkin.

Tarixiy taraqqiyot tajribalari ko'rsatdiki, ma'naviy qashshoq va o'zligidan mahrum bo'lgan maqurt millat zaif, itoatkor o'zgalar izmidan yuradigan "beozorgina" bo'lib qolaveradi. Buning oqibatida millatning nafaqat milliy-ma'naviy hayoti barbod bo'ladi, shuningdek uning mustaqilligi ham qo'lidan ketadi va iqtisodiy hayoti ham o'zgalarning xoxish-irodasi bilan boshqariladigan bo'ladi.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, "globallahuv va axborot hurujlari, turli buzg'unchi g'oyalalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlаримизга qarshi taxdid va xatarlar toboro kuchaymoqda. Hudbinlik, ya'ni faqat o'zini o'ylash, hayotga, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati singari illatlar turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa yoshlar ongiga singdirilmoqda. Terrorizm, ekstrimizm, transmilliy kiber jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi toboro ortib bormoqda. Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zarali g'oyalalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib honadaonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz" - deya ta'kidladilar⁴.

Shuning uchun ham o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlаримизни yot, begona va zararli, buzg'unchi g'oyalardan saqlab qolishda milliy g'oya eng ishonchli vositadir.

⁴ Sh.M.Mirziyoyev "YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI". - Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.Б.55.,40

Milliy o'zlikni anglash-millat va har bir millat vakilining umumiy madaniy negizga, til, madaniyat, tarixiy meros, ruhiyatga, urf-odat va an'analarga mansublik va o'z o'rmini idrok etishdir⁵.

DISCUSSION

“Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajiratib bo‘lmaydi” – degan edi birinchi Prezidentimiz I.Karimov o‘z nutqida⁶.

Haqiqatida, har bir davrda davlatda ta’lim-tarbiya masalasi bosh vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Ta’lim muassasalarida biz pedagoglar ta’lim bilan birga ma’naviyat va ma’rifatni yoshlar ongiga singdib borishimiz zarurdir. Sababi, ma’naviyat va ma’rifatni targ‘ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma’naviyatimiz bevosita ta’limtarbiya bilan chambarchas bog‘liq. Xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi, farzandlarimizning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog‘liq. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi. Ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali ma’naviyat va ma’rifatimiz keng targ‘ib qilinib, ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalash orqali globallashuv jarayonida bizga tahdid solayotgan ommaviy madaniyat singari yot illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi. Qayerda, qaysi davlatda ma’naviyat yuksak darajaga ko‘tarilmasa, shu yerda g‘oyaviy bo‘shliq yuzaga keladi. Sababi, ma’naviy ochlikga davo yo‘q.

Bugungi kunda ayrim yoshlarimiz davlatimiz tomonidan yaratilayotgan keng imkoniyatlardan foydalanish o‘rniga yot illatlarga o‘ralashib qolmoqda. Yoshlarimizni bunday salbiy illatlardan muhofaza qilishning samarali yo‘li ma’naviyatni targ‘ib qilish.

Biz ta’lim muassasalarida yoshlarimizning vatanga sodiq, komil va ma’naviy yetuk inson bo‘lib tarbiyalanishida quyidagi birqancha targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini o‘tkazsak maqsadga muvofiq.

Har bir insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bola tarbiyasida oila va otaonaning o‘rni beqiyos, ayrim ota-onalarning o‘z mas’uliyatlariga beparvoligi oqibatida bolalarning har xil yomon yo‘llarga tushib ketishi va erta nikoh qurish singari salbiy oqibatlar yuz bermoqda. Bunday salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida, o‘rta maxsus ta’lim mussasalarida guruh rahbarlari bilan birlgilikda ota-onalar bilan yig‘ilishlar, suhbatlar o‘tkazib farzandlarimizning yaxshi inson bo‘lib voyaga yetishlari yo‘lidagi qator masalalarni o‘rganib chiqishimiz zarur.

⁵ Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. - 2021. - T. 8. - №. 5. - C. 469-473

⁶ I.Karimov «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» Toshkent «Ma’naviyat» 2008 y

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish va yoshlar tarbiyasida mahallaning o'rni va ta'siri ku'chli ekanligini aytib o'tishimiz lozim. Ta'lim mussasasi hududiga yaqin joylashgan mahalla fuqarolor yig'inida da ulkan hayotiy va amaliy targ'ibot tajribasiga ega otaxon va onaxonlarni ta'lim muassasalariga jalb etib, o'quvchilar bilan suhbatlar tashkillashtirilib turilsa yaxshi samara beradi. Sababi yoshi ulug'larning hayot yo'li va tarbiyasi yosolarimizga namuna bo'lib xizmat qiladi⁷.

Inson qalbiga yo'l ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. O'qituvchilari muhim mavzularda ochiq tarbiya darslarini tashkillashtirib, o'quvchilar ongiga ma'naviyatimizni singdirib, komil inson bo'lib shakllanishida kata hissa qo'shishi kerak.

Ilm-fan, ma'naviyatimizni shakllantirishda o'ziga xos ta'sir o'tkazadi. Olimlar va ijodkorlar ma'naviy boyliklarni yaratuvchilardir. Shuning uchun yil davomida ta'lim muassasalrida o'quvchilarining olimlar va ijodkorlar bilan uchrashuv kechalarini tashkillashtirib mazmunli o'tkazish lozim.

Adabiyot yashasa, millat yashaydi. Ma'naviyatimizning rivojiga bebahohi ijodi bilan katta hissa qo'shgan adabiyotimizning buyuk darg'alari A.Navoiy, Z.Bobur, Ajiniyoz, Berdax, Zulfiya, I.Yusupov, T.Qayipbergenov, M.Yusuf ijodi va tavallud ayyomlarini belgilash orqali o'quvchilarimizda ularning ma'naviy merosini bilish va asrab avaylash hissini shakllantiramiz. Shuningdek, har bir milatning dunyoda borlig'ini ko'rstadigan oyinaiy hayoti uning tili. O'zbek va qoraqalpoq davlat tillarining qabul qilinganligi munosabati bilan har yili ko'tarinki ruhda til bayramini, bundan tashqari O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyalari qabul qilingan kunlari, 8-mart xalqaro xotin-qizlar bayrami, 9-may xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni ,yosolarimizning sog'lom turmush tarzi va erta nikoh qurishning oldini olish bo'yicha tibbiyat xodimlari va boshqada tegishli mutaxassislari bilan seminarlar, suhbatlarni o'tkazish yaxshi samara beradi⁸.

Shuningdek, yosolarimiz orasida diniy ekstremizm va terrorizm, narkomaniya va jinoyatchilikning oldini olish maqsadida din vakillari, yosolar agentliklari, tibbiyat va huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan muntazam ravishda seminar, treninglar, suhbatlar muntazam o'tkazilishi kerak.

Har bir xalqning boy ma'naviyatin uning tarixi orqali bilamiz. O'quvchilarini har yili boy tarixiy yodgorliklarimiz va muzeylemarimizga sayohat uyuştirish oqrali ona vatan tarixin o'rganish va ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash burchin tarixiy yodgorliklar va muzeylarga sayohat qilish orqali teran anglab yetadi⁹.

⁷ Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида ПФ-4947-сон, 2017 йил 7 февраль

⁸ Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида ПФ-5618-сон, 2019 йил 9 январь

⁹ Мирзиёев Ш. М. Инсон манбаатлари ва ҳуқуқларини таъминлаш – демократик жамийат асосидир.(БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқ) Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган баҳо. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018.

CONCULISION

Tabiiyki, har bir davlat o'zining yoshlari bilan g'ururlanadi. Buning sabablari bor albatta. Barkamol avlodni tarbiyalash — yoshlarning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosidir. O'zbekiston yoshlar mamlakatidir. Shu jihatdan o lib qaraganda, davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyoti bugungi yoshlarning bilimiga, g'ayrat-shijoatiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg'usining qanchalik yuksakligiga, komillik darajasiga bog'liq. Kelajagimiz erkin fikrlaydigan, mustaqilish yurita oladigan, chet tillaridan yaxshi xabardor, yuqori texnologik tafakkurga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan, kerak bo'lsa, Vatan uchun jonini fido qila oladigan yoshlarni talab etadi.

Xulosa o'rnida, bilimga chanqoq iste'dodli yoshlarni topib, ularni vatanga fidoyi qilib tarbiyalash muqaddas vazifadir. Ta'lif bilan birga ma'naviy va ma'rifiy ishlarni keng turda targ'ib qilish yoshlarimizni vatanga sodiq, barkamol inson qilib tarbiyalash burchimizdir.

LITERATURE

1. «O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'grisidagi» gi qonuni va «Kadrlar taylorlashning miliy dasturi» 2020 yil 23-sentabr
2. Kadirova H. The Place Of Karakalpak Ethnoculture In The Integration Of Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. - 2021. - T. 3. - №. 04. -C. 676-688.
3. Кадирова Х. Б. Главная духовная ценность и личность человека //ФЭн-наука. - 2015. -№. 1. - С. 29-32.
4. Sh.M.Mirziyoyev "YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI". - Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021.Б.55.,40
5. Kadirova Y. B. The Advantages of Improving Students' Civic Literacy in Building a Democratic State Governed by the Rule of Law //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. - 2021. - T. 8. - №. 5. - C. 469-473
6. I.Karimov «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» Toshkent «Ma'naviyat» 2008 у
7. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида ПФ-4947-сон, 2017 йил 7 февраль
8. Жамиятда хуқуқий оңг ва хуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида ПФ-5618-сон, 2019 йил 9 январь
9. Мирзиёев Ш. М. Инсон манбаатлари ва хуқуқларини таъминлаш – демократик жамият асосидир.(БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқ) Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган баҳо. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018.